

## 1-SINF ONA TILI DARSALARIDA CHIROYLI YOZUV DAQIQALARINI O'TKAZISH USLUBIYATI

Jamoliddinova Dilnoza Mirhojiddinovna  
*Qo'qon DPI f.f.d professor*

Bahtiyorova Hayotxon Qo'qon  
*DPI talabasi*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada ona tili o'qitish metodikasi haqida tushuncha berilib. Boshlang'ich sind o'quvchilarini qanday chiroyli yozuvga o'rgatish kerakligi haqida qisqacha mulohaza berilgan.

**Kalit so'zlar:** metodika, nutq, yozuv, chiroyli yozuv.

Maktabni bitirib chiqqan yoshlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning rang – barang jabhalarida, muloqot va munosabatning barcha turlarida o'zbek tilidan bemalol – erkin, samarali va to'g'ri foydalana olish, uning cheksiz imkoniyatlaridan to'laqonli bahramand bo'lish, zaruriy ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari kerak.

«Ona tili» darslarida o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish lozim. SHuning uchun o'quv dasturi va u asosida yaratiladigan darsliklarda grammatik qoidalarni yodlatishdan voz kechish, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, dars va mashg'ulotlarni o'quvchilarning nutqiy malakasini yuzaga keltirishga qaratish maqsad qilib olindi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ona tili fanini o'qitishning maqsadi – o'quvchilarda og'zaki va yozma nutq ko'nikmasini, ijodiy fikrlash malakasini, kitobxonlik va nutq madaniyatini rivojlantirishdan iborat.

Ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi: o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyanı rivojlantirish; o'quvchilarda grammatikaga oid bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarini) shakllantirish va rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda o'qigan, ko'rgan, eshitganlarini nutqiy to'g'ri va ravon bayon eta olish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Ona tili fanining o'quv dasturi o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standarti talablaridan kelib chiqib tuzilgan. O'quv dasturida o'quvchilarda fanga doir nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni hamda tayanch kompetensiyalarning elementlarini shakllantirish ko'zda tutilgan.

Boshlang‘ich ta’limda – o‘quvchilarning savodxonligini ta’minalash, og‘zaki va yozma nutqida adabiy nutq me’yorlariga rioya qilishni shakllantirishdan iborat.

Ona tili o‘qitish metodikasi-pedagogika va amaliy fan.Chunki, nazariyaga asoslanib o‘quvchilarni o‘qitish, tarbiyalash, o‘strishning asosiy vazifalarini bajaradi. O‘zbek tili o‘qish metodikasining o‘rgatish obyektiga aylanishi kerak. Shu bilan bu fanning mazmuni quydagicha belgilash mumkin: Ona tili ta’limning izchil tizmini ishlab chiqarish, ona tili darslarini tashkil etishga oid metodik tavsiyalarni tanlash va amaliyoga joriy etish. Shu bilan birga metodika sohasining zamonaviy pedagogik texnalogiya til o‘qitishning interfaol metodlarini o‘zda aks ettirgan ilmiy asoslarni ishlab chiqishdir. Bu fanda egallagan bilimlarini pedagogik amaliyotga joriy etish ilg‘or pedagogik texnalogiyalardan unimli foydalanishga yo‘naltirilgan O‘zbek tili o‘qitish metodikasi ijodiy tafakkurni shakillantirishning didaktik asoslarini o‘rgatadi. Ona tili metodikasi fani yosh avlodga ona tilidan nimani? Qancha? Qanday? Qanday? o‘rgatish kerak degan savollarga javob beradi.Til o‘qitish metodikasini o‘rganish turli ta’lim bosqichlariga mos qulay metodlarni ishlash, tanlash, amaliyotga qo‘llay bilish. Ona tili o‘qitish metodikasi fani ta’lim berish sharoitida ona tilini egallah, ya’ni nutqni o‘qish va yozishni fonetika, gramatika, bilib olish jarayoni hissoblanadi.Ona tilidan ko’nikma va malakalarini shakillantirish, til haqidagi fanning ilmiy tushunchalar sistemasini o‘zgartirish qonuniyatlarini o‘rganadi, til o‘rganishning eng qulay metod va usullarini izohlaydi. Ona tili o‘qitish metodikasi amaliy fan sifatida 3 vazifani bajaradi.

1 Nimani o‘qitish kerak? Savoliga javob beradi. Ya’ni boshlang‘ich sinf uchun dasturlar ishlab chiqadi. Darslik va o‘quv qo‘llanmani yaratib beradi. Ularning samaradorligini va muvofaqiyatini doimiy tekshirib boradi.

2 Qanday o‘qitish kerak? Savoliga ta’lim berishning metodlari, metodik usullari mashiqlar sistemasi qo‘llanmani tadbiq etish tavsiyanomalarini, yozma ish, amaliy ishlar sistemasini, dars uning turlarini ishlab javob beradi.

3 Neja xuddi shunday o‘qitish kerak? Bunda ilmiy nuqtai nazardan eng foydali metodlarni o‘rgatish, tanlash, asoslash, tavsiyalarini ekperimentol tekshirish vazifalarini bajaradi.

Shuning uchun darslikdagi rasmlar, o‘quvchilar savollari, ko‘rgazmali qurollar ongli o‘qishni ta’minalaydi.Biz bu bolalarni ongli rivojlanishi uchun so‘zni va fikrni to‘g‘ri ayta olishishi uchun yo‘l qo‘yib ko‘rsatishimiz kerak deb hisoblaydi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva O.A, Sofarova K.G‘, Bikboyeva N.U, Baxromov U Boshlang‘ich ta’lim davlay talim standardi. Boshlang‘ich ta’lim jurnali N.602010 y
2. “Kadrlar tayyorlash” milliy dasturi” G‘G‘. Oliy ta’lim (me’yoriy huquqiy va uslubi xujjatlar to‘plami) Toshkent 2004
3. Umumiy o‘rta ta’lim D.T.S. o‘quv dasturi. O.Abdullayeva va boshqalar. “savod o‘rgatish metodikasi”
4. Ta’lim to‘g‘risidagi” qonun G‘G‘. “Barkamol avlod- “O‘zbekiston taraqiyotining poydevori” Toshkent : O‘zbekiston 1997
5. Yigitaliyeva, S. (2022). O‘zbek tilida yaxshilik konsepti va uning xalq maqollarida ifodalanish xususiyatlari. Qo‘qon DPI. Ilmiy habarlar.
6. Isog’aliyevna, Y. S. (2023). Boshlang‘ich sinflarda mustaqil so’z turkumlarini o’qitishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati. Conferencea, 16-21.
7. Umarova, N. R., & Isog, S. Y. ali qizi.(2021) CONCEPT AS A BASIC OF COGNITIVE LINGUISTICS. THEORETICAL &APPLIED SCIENCE. Учредители Теоретическая и прикладная наука (9), 701-704.
8. Tursunaliyevna, A. M. (2023, May). OMONIMLAR VA SUN’IY INTELLEKT. In International Congress on Models and methods in Modern Investigations (pp. 48-51).
9. Abdurahmanova, M. T. (2023). OMONIMLARNI FARQLASH USULLARINING SUN’IY INTELLEKT VA MASHINA TARJIMASIDAGI O ‘RNI. Educational Research in Universal Sciences, 2(4), 241-248.
10. Abdurahmanova, M., & Olimova, M. (2023). MORFOLOGIK ANALIZATOR XUSUSIDA. COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS, 1(1).
11. Abdurahmanova, M., & Nizomova, F. (2022). O ‘ZLASHMA SO ‘ZLAR BAZASINI YARATISH OMILLARI. COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS, 1(1).
12. Abdurahmanova, M., & Malikova, Z. (2022). O ‘ZBEK TILIDA SOTSIOLEKT. FAN, TA’LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA, 1(2), 104-107.
13. Yigitaliyeva, S., & Yo’ldoshboyeva, O. (2023). OLIY TALIMDA ONA TILI FANINI O ‘QITISHNING NAZARIY MASALALARI. Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 2(8), 41-44.
14. Abdurahmanova, M., & Nurmatova, S. (2022). QORA RANG TALQINI HAQIDA. FAN, TA’LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA, 1(2), 74-78.
15. Tursunaliyevna, A. M. (2022). TILSHUNOSLIKDA KOGNITIV YO’NALISHLAR. FAN, TA’LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA, 1(2), 113-116.